



BOLALAR XOR IJROCHILIGINING MUAMMOLARI VA TENDENSIYALARI

M.Zokirjonova

O'zbekiston davlat konservatoriyasi
“Akademik xor dirijyorligi” kafedrası
1-bosqich magistri

Annotatsiya: Maqolada Respublikamizda yoshlar va bolalar o'rtasida xor san'ati - ularning hayotida estetik ma'naviyatini rivojlantirishi shuningdek, Vatanga bo'lgan muhabbat va do'stlik – inoqlik ruhiyatini shakllantirishga yordam berishi haqida. Boshqa mutaxassislarning ish uslublari bilan tanishib, kamchiliklarni bartaraf yetish bo'yicha tajribam bilan o'rtoqlashaman.

Kalit so'zlar: Xordagi ijrochilik, bolalar tarbiyasi, yosh xususiyatlari, foydali ko'nikmalarni egallash.

Аннотация: В статье говорится о роли и значении хорового искусства в развитии эстетического чувства и воспитании духа любви и дружбы к Родине среди детей и юношества в нашей республике. Знакомясь с методами работы других специалистов, делюсь опытом своей работы над устранением недостатков.

Ключевые слова: Хоровое пение, воспитание детей, возрастные особенности, приобретение полезных навыков.

Abstract: The article talks about the role and importance of choral art in the development of aesthetic feeling and fostering the spirit of love and friendship for the Motherland among children and youth in our republic. Getting acquainted with the working methods of other specialists, I share my experience in eliminating shortcomings.



Key words: Choral singing, parenting, age characteristics, acquisition of useful skills.

Respublikamizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol bo'lib yetishishini ta'minlash yo'lidagi ulkan bunyodkorlik ishlarining muhim jabhalaridan biri ta'lim-tarbiya amaliyotiga yangi, bugungi kun talabiga javob bera oladigan usul va uslublarni joriy qilish hamda ular asosida o'qitish samaradorligini oshirish masalalari dolzarb vazifaga aylanib qolmoqda.

Shu ma'noda san'at turlari va ularning ahamiyati haqida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida: "Bugungi kunda adabiyot va san'at, umuman madaniyat sohalarida mavjud muammo va kamchiliklarning tub ildizlarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, ularning aksariyati malakali kadrlar yetishmasligi bilan bog'liq ekani ayon bo'ladi. Shuning uchun ham avvalo madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlari, musiqa va san'at maktablarining faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqishi zarur." - deya bildirgan fikrlari zamon bilan hamohang bo'lib turibdi¹.

Mustaqil diyorimizda o'sib kelayotgan har bir yosh avlodning bilim olishi, o'qib o'rganishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Bolalarning maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun tashkil qilinayotgan qo'shimcha ta'lim turlarini ko'paytirish va ularni rivojlantirish bugungi kundagi eng dolzarb masalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni o'z kasbining yetuk mutahassisi qilib tarbiyalashda maktablarning o'rnini beqiyos. Bolalar musiqa va san'at maktablari ham shular jumlasidandir.

Musiqa san'ati turlari ichida jamoaviy kuylash -xor san'atining o'ziga xosligi, yuqori ijro madaniyati va mukammalligi bilan tinglovchilarga o'zgacha huzur bahsh etadi. Jamoaviylik - bu birdamlik, do'stlik, birodarlik tushunchalari bilan uzviy bog'liq deb

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/856> 04.08.2017 yildagi ma'ruza.



o'ylayman. Jamoaviy ijrochilik insonga ma'naviy ozuqa berish bilan birga, ularning madaniyatini, dunyoqarashini, ulardagi insoniy tuyg'ularni shakllantirishga katta yordam beradi.

Musiqqa janrlari ichida eng xalqqa tushunarli va yaqin bo'lgan tur bu **xor san'atidir**. Xorda adabiy va musiqiy ijodiyot o'zaro uyg'unlashib, yaxlit obraz yaratadi. Xor xalqlar milliy musiqqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi. **Xor grekcha «Xoros»**-yig'ilish ma'nosini bildiradi. Qadimiy grek teatr spektakllarida qatnashuvchi ashulachilar, o'yinchilar va deklomatsiya qiluvchilar guruhi **«xorvetlar»** deyilgan. Xorda yakka tembrlarning qo'shilishidan hosil bo'ladigan o'ziga xos tembrlar mavjuddir. Xor deb – maxsus tashkil qilingan vokal- xor texnikasiga, Badiiy-ifoda vositalariga ega bo'lgan va shu vositalar orqali ijro qilinadigan asarning mazmunini eshituvchilarga yetkazib bera oladigan jamoaga aytiladi².

Xor xonishi – bu insonlarning shunday faoliyatiki, unda bir insonning tuyg'u va kechinmalari butun jamoa kechinmalari va tuyg'ulari bilan o'zaro mutanosiblashib, yagona badiiy-etik yo'nalishga, badiiy, estetik, ma'naviy va ijodiy mukammallik, taraqqiy rivojlanish tomon yagona intilish bilan birlashadi. Ahloq meyorlarini ishlab chiqish, do'stlar va ustozlarga nisbatan muomala va hurmat, intizom, iroda, maqsad sari intiluvchanlik, diqqat-e'tibor, mas'uliyat, boshqalarni tinglay olish – bularning barchasi aynan jamoaviy mashg'ulotlarda rivojlantiriladi³.

Bolalar xori— yosh xususiyatlariga ko'ra farqlanadigan xor. Kichik maktab yoshidagi xor, 6-7 yoshdan - 10-11 yoshgacha bo'lgan bolalardan tashkil topadi. Xor sadosi g'oyatda yengil faltsetli, diapazoni cheklangan. Repertuari bir ovozli va ikki ovozli asarlardan iborat, bunda ikkinchi ovoz birinchi ovoz tembridan juda ham kam farqlanadi.

² D. Xamdanova. Xorshunoslik. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik – N.: 2005. 30 bet

³ Kadirova, Sevara. Xorshunoslik. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. – «Musiqqa» nashriyoti, T.: 2019. 4 bet.



Oʻrta maktab yoshidagi xorda bolalar yoshi 11-14 yoshgacha. Bu davrda ovoz diapazoni ortadi, koʻkrak registrdagi tovush elementlari paydo boʻlib, tembr tuslari koʻzga tashlanadi. Repertuari ikki va uch ovozli asarlardan tashkil topadi. Katta maktab yoshidagi xor 14—16 yoshdagi bolalardan iborat. Xor repertuari bolalar tessiturasiga mos keladigan (ayollar xoriga xos) asarlardan tarkib topadi. Oʻgʻil bolalar xori 7-8 yoshdan 14-15 yoshgacha boʻlgan bolalardan tuziladi, sadosi juda aniq, yengil, oʻziga xos tembrga ega. Yuqori sinf oʻquvchilari - aralash yoshlar va oʻsmirlar xorini tashkil etishlari mumkin⁴.

Xor bilan mashgʻulotlar asosan ikki hil vazifani bajaruvchi ovoz sozlash mashqlari bilan boshlanadi:

- 1) ovozlarni ish jarayoniga tayyorlash, ovoz apparatini qizdirish va sozlashga yordam beradi;
- 2) xor partiyalarini ijro etish jarayonida xonandalik ovozining goʻzalligi va badiiyligini taʼminlovchi vokal-xor koʻnikmalarini rivojlantirish.

“Ye”, “yo”, “yu”, “ya” unlilarini qoʻllash yorqin bosh tovushini shakllantirishga yordam beradi. “I” tovushi ovozga jarangdorlik bagʻishlaydi, biroq xorda ochiq, keskin tembr vujudga kelmasligi uchun undan ehtiyotkorlik bilan foydalanish darkor. Artikulyatsion apparatning orqa tomonini rivojlantirish uchun “o”, “u” unlilariga beriladigan mashqlar, yumshoq tanglay uchun yopiq ogʻiz bilan, “ma”, “na”, birikmalariga oʻtuvchi mashqlar koʻmak beradi. Jagʻni boʻshatish uchun “bay”, “day” birikmalari yordam beradi⁵.

Bolalar xor jamoasiga mos ovoz mashqlari:

1 –mashq. Yumuq ogʻiz bilan yoki unli tovushlarda quyidagi mashqni kuylash maqsadga muvofiq. Unda tovushlar yigʻiq holda shakllanib qattiq tanglay tomon

⁴ Kadirova, Sevara. Xorshunoslik. Oliy taʼlim muassasalari talabalari uchun darslik. – «Musika» nashriyoti, T.: 2019. 26 bet.

⁵ Kadirova, Sevara. Xorshunoslik. Oliy taʼlim muassasalari talabalari uchun darslik. – «Musika» nashriyoti, T.: 2019. 73 bet.



yo‘naltiriladi. Bu mashqda kuylovchilarning unison tarzidagi ansamblda, tiniq sozda kuylashlari talab etiladi. Mashq yarim tonlar bilan avvalo yuqori tomonga, keyin esa past tomonga qarata ijro etiladi.



2-mashq. Ushbu ovoz mashqi talabalarning talaffuzini rivojlantirish, ya'ni so‘z va kuy ijrosida texnik chaqqonlikni o‘rgatishga qaratilgan.



3-mashq. Mashqda maqsad bir ovozdan asta-sekinlik bilan ikki ovozga bo‘linib, divizida kuylashga erishish.



4-mashq. Artikulyatsiya apparati mushaklarini bo‘shatish va xonanda lablarining faolligini oshiruvchi mashqlar⁶.



Xor san'ati bolalarda jamoaviylik, intizom, mas'uliyat va musiqiy bilimlarni egallashga ongli ravishda yondashuvni tarbiyalab, badiiy didni rivojlantiradi, xor bilimlari

⁶ Feruza Mansurbekovna. Xor sinfi. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv qo'llanma «Musiqqa» nashriyoti, T.: 2019. 20 bet.



esa ovoz iqtidorini rivojlantirishga, musiqiy eshitish qobiliyatini takomillashtirishga, vokalxor malakalarini egallashga va o'quvchilarning ijodiy individualligini namoyon etishga yordam beradi.

Bolalar asarlarini ijro etish uchun avvalambor, o'quvchi nota bo'yicha kuyni ijro etishni o'rganishdan oldin, ongida jaranglayotgan musiqani fortepianoda chalishni bilishi lozim. o'quvchilarda musiqani idrok etishini tarbiyalash muammosi bugungi kunda asosiy dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Biz musiqiy asarlarni tahlil qilishda o'quvchilar musiqani idrok etish qobiliyatini qanchalik shakllangan ekanligini oldindan bilib olib, so'ngra fortepianodan saboq berishimiz lozim.

Xorda kuylashga o'rgatish – bolalarni milliy ruhda tarbiyalash, millatni yuqori madaniy saviyada rivojlantirish, psixologik va jismonan sog'lom bolalarni shakllantirish usullaridan hisoblanadi. Xormeysterning ishi – musiqa o'qituvchisi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, kuylashni bilmaydigan bolalardan tuzilgan xor jamoasini kuylashga o'rgatishdan iborat. Shuning uchun eng avvalo bolalarda ovozni shakllantirishi lozim, ya'ni ovoz postanovka(qo'yishi)si ustida ishlash. Bu kabi mashg'ulotlar doyimiy ravishda o'tkazilishi lozim: birinchi navbatda mashqlar, keyin esa vokal asarlarni kuylash. Xormeyster mukammal darajadagi xonanda bo'lmasligi mumkin, lekin imkon darajasida chiroyli kuylay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi shart. o'rgatishdan oldin o'qituvchi o'zi mukammal darajada asarni bilishi va kuylay olishi kerak⁷.

Bolalar baland kuylasa- shunchalik yaxshi deb xato o'ylashadi, biroq bolalar xorida baqirib kuylashni umuman yo'q qilish kerak. Bola doim baqirib kuylasa, hamda, tovushni forsirovka qilaversa (kuchaytiraversa) ovozini yo'qotib qo'yishi mumkin. Maksimal darajada tabiiy, zo'riqtirmasdan kuylash kerak. Faqatgina mazkur qoidalarga amal qilinganda vokal imkoniyatlarining maqbul rivojlanishiga erishish mumkin. Juda yuqori yoki past tovushda kuylash ham kerak emas, chunki ovoz o'zining jarangdorligi hamda

⁷ D.A.Karimova, Sh.A.Yakubova. Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash. –T.: «Fan va texnologiya», 2016.15 bet



kuchini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Imkon qadar qulay diapazondagi, muntazam mashqlar ovoz rivojiga ko‘mak beradi. Ovoz apparatining kamchiliklari natijasida bola noto‘g‘ri kuylashi mumkin va unda musiqiy eshitish qobiliyati yaxshi rivojlanmagan degan xato taassurot uyg‘otadi. Ayrim hollarda shamollash (xirillash) ham kuyni aniq kuylashga xalaqit beradi. Shuning uchun bolalar bilan o‘z ovoziga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerakligi haqida suhbatlar olib borish kerak⁸.

Ma‘lumki, xonanda eshitganini va qay darajada eshitganini kuylaydi. Shuning uchun o‘qituvchi oldidagi eng muhim masala eshitish qobiliyatini rivojlantirishdir. **G.P.Stulovanning** amaliy malakalaridan ko‘rinib turibdiki, bolada eshitish va ovoz o‘rtasidagi koordinatsiya, muvozanat ma‘lum bir davr, ya‘ni sakkiz yoshgacha jadal rivojlanadi, bola qanchalik yosh bo‘lsa, shunchalik oson moslasha oladi⁹.

Men o‘z ish tajribamdan kelib chiqib bolalar bilan ishlash jarayonida G.P.Stulovanning ish jarayonida qo‘llagan tajribalaridan va tavsiyalaridan o‘z ish jarayonlarimda hamda amalda qo‘lladim. Va bolalar xor jamoasi asarlarni kuylash jarayonida bu metodik tavsiyalar ya‘ni G.P.Stulovanning bolalar bilan ishlash tajribasi menga yordam berdi. Shuni ta‘kidlab o‘tishim zarurki, biz O‘zbekiston davlat konservatoriyasida o‘qigan chog‘larimizda va amaliyotda o‘tagan Shermat Yormatov nomidagi “ Bulbulcha ” bolalar xor jamoasi ansamblida, Gliyer nomidagi RIMAL kichik va katta sinf xor jamoalarida o‘z tajriba malakalarimizni ustozlarimizdan: Mansurova G.Sh, Shokarimov O‘.I, Kadirova S.P, va Djumayeva L.X lardan o‘rgandik. Ularning pedagogik mahoratlari bilan tanishdik. Va o‘zimizga kerakli bo‘lgan xulosalarni shakllantirdik. Ustozlar an‘analarini davom ettirish biz yoshlar uchun ham qarz ham farzdir.

⁸ Feruza Mansurbekovna. Xor sinfi. Oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma «Musiq» nashriyoti, T.: 2019 22 bet

⁹ D. Xamdamova. Xorshunoslik. Oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun darslik – N.: 2005. 30 bet



Foydalangan adabiyotlar:

1. Kadirova, Sevara. Xorshunoslik. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. – «Musiq» nashriyoti, T.: 2019.
2. D. Xamdamova. Xorshunoslik. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik – N.: 2005.
3. D.A.Karimova, Sh.A.Yakubova. Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash. –T.: «Fan va texnologiya», 2016.
4. Feruza Mansurbekovna.Xor sinfi. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv qo'llanma «Musiq» nashriyoti , T.: 2019